



UO'K: 811.512.133' 23:373.24

**TILSHUNOSLIKDA NUTQ ONTOGENEZINING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI VA UNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI****ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОНТОГЕНЕЗА РЕЧИ В
ЯЗЫКОЗНАНИИ И ЕГО НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ****PSYCHOLINGUISTIC STUDY OF SPEECH ONTOGENESIS IN LINGUISTICS AND ITS
SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS****Davlatova Hulkaroy Uktamovna** 

Andijon davlat chet tillari instituti, (PhD) dotsent

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot tilshunoslikda nutq ontogenezini psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda nutq qobiliyatining shakllanishi, rivojlanishi va shaxs tilida yuz beradigan yoshga oid o'zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan. Tadqiqotning bosh maqsadi – nutqning individual rivojlanish jarayonini psixologik va lingvistik mexanizmlar kesimida yoritish, bolalar nutqini o'zlashtirish jarayonidagi umumiy qonuniyatlarni ochib berishdan iboratdir. Metodologik jihatdan ishda qiyosiy-tahliliy yondashuv, kuzatuv va eksperimental metodlardan foydalanildi. Shuningdek, bola nutqini kuzatish kundaliklari, lingvistik va psixologik test natijalari, ilg'or rus va g'arb olimlarining ilmiy ishlari asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq ontogenezi nafaqat til tizimi, balki kognitiv rivojlanish, muloqot ehtiyojlari va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, bolalar nutqida morfologik, sintaktik va leksik rivojlanish bosqichlari muayyan psixolingvistik qonuniyatlarga asoslanishi aniqlangan. Xulosa sifatida, nutq ontogenezini psixolingvistik tadqiq qilish bolalar nutqini shakllantirishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish, til o'qitish jarayonida samarali strategiyalar ishlab chiqish hamda bolalarning kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Аннотация

Данное исследование посвящено психолингвистическому исследованию онтогенеза речи в языкознании, где основное внимание уделяется формированию речевой способности, её развитию и возрастным изменениям в индивидуальном языке личности. Цель работы заключается в раскрытии психологических и лингвистических механизмов индивидуального речевого развития, а также в выявлении общих закономерностей усвоения речи детьми. Методологическую основу исследования составили сравнительно-аналитический подход, методы наблюдения и эксперимента. В качестве эмпирической базы использовались дневники наблюдений за детской речью, лингвистические и психологические тесты, а также труды ведущих российских и зарубежных учёных. Результаты исследования показали, что онтогенез речи тесно связан не только с языковой системой, но и с когнитивным развитием, коммуникативными потребностями и социальными факторами. Установлено, что морфологические, синтаксические и лексические стадии развития детской речи подчиняются определённым психолингвистическим закономерностям. В заключение следует отметить, что психолингвистическое изучение онтогенеза речи имеет важное значение для совершенствования методических подходов к формированию детской речи, разработки эффективных стратегий обучения языку, а также развития когнитивных и коммуникативных компетенций у детей.

Abstract

This research is devoted to the psycholinguistic study of speech ontogenesis within linguistics, focusing on the formation of speech ability, its developmental stages, and age-related changes in an individual's language. The main aim of the study is to reveal the psychological and linguistic mechanisms underlying individual speech development and to identify general patterns of language acquisition in children. The methodological framework is based on comparative-analytical analysis, observation, and experimental methods. The empirical material includes child speech diaries, linguistic and psychological test results, as well as the works of leading Russian and Western scholars. The findings demonstrate that speech ontogenesis is interconnected not only with the linguistic system but also with cognitive development, communicative needs, and social factors. Moreover, it was established that the morphological, syntactic, and lexical stages of child speech development follow specific psycholinguistic regularities. In conclusion, the psycholinguistic study of speech ontogenesis provides a solid scientific and practical basis for improving methodological approaches to child speech formation, developing effective language teaching strategies, and fostering children's cognitive and communicative competencies.

Kalit so'zlar: *nutq ontogenezi, psixolingvistik tadqiqotlar, nutq, bolalar, til o'qitish, strategiya, qiyosiy-tahliliy yondashuv*

Ключевые слова: *онтогенез речи, психолингвистические исследования, речь, дети, обучение языку, стратегия, сравнительно-аналитический подход*

Key words: *speech ontogenesis, psycholinguistic research, speech, children, language teaching, strategy, comparative-analytical approach.*

KIRISH

Psixolingvistika fani XX asrning o'rtalarida tilshunoslik va psixologiya chorrahasida yuzaga kelgan mustaqil ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy tadqiqot obyekti sifatida nutqning hosil bo'lish jarayonlari, shuningdek, nutqni idrok etish va uni shakllantirish mexanizmlari til tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Nutqiy faoliyatning paydo bo'lishi va uni qabul qilish jarayoni inson ongida sodir bo'ladigan murakkab psixik jarayonlarning bevosita in'ikosi bo'lib, bu jihatdan psixolingvistika mazmunan tilshunoslikka yaqin, metodologik jihatdan esa psixologiyaga yaqin turadi. Mazkur fan dastlabki kurtaklarini Sharq ilmiy an'alarida topgan bo'lsa-da, uning to'laqonli ilmiy soha sifatida shakllanishi va taraqqiy etishi ko'proq rus psixolingvistika maktabi bilan bog'liqdir. Olimlarning fikriga ko'ra, psixolingvistika fan sifatida 1950-yillarda shakllangan bo'lib, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda L.S. Vigotskiy alohida o'rin tutadi. Sh.Safarovning ta'kidlashicha, Vigotskiy bilan bir qatorda A.A. Leontyev, A.R. Luriya, A.N. Sokolov, P.Ya. Galperin, D.B. Yelkonin kabi yetuk olimlarning izlanishlari rus psixolingvistika maktabining shakllanishiga katta hissa qo'shgan[15]. L.S. Vigotskiyning asarlarida, avvalo, bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishi, tafakkur va nutq faoliyatlari o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik masalalari keng yoritilgan. U insonning nutqiy faoliyatini ilmiy asosda chuqur o'rgangan olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Vigotskiy til birliklari, xususan, so'zning kommunikativ mohiyatiga e'tibor qaratib, so'zning doimo ma'lum bir obyekt yoki hodisaga yo'naltirilishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bola ona tilini tabiiy sharoitda, maxsus tayyorgarliksiz va ongli ravishda emas, balki tabiiy ehtiyoj natijasida egallasa, chet tilini o'rganish jarayoni maxsus maqsad va ongli faoliyatni talab etadi[4] Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, jumladan, ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari bu ilmiy qarashlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xususan, bolalar nutqini o'rganish masalasi hozirgi tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bola tomonidan ona tilini o'zlashtirish jarayonini o'rganish psixolingvistik yondashuvning markaziy vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayonda bola va kattalar o'rtasidagi muloqot muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot davomida bola nutqi asta-sekin shakllanib, boyib boradi va shu bilan birga, uning kognitiv hamda emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, psixolingvistika bolalar nutqining ontogenezi chuqur tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va uning dolzarbligi bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan, balki yangi pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan boyib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasining o'ziga xos in'ikosi sifatida qaraladi. Zero, til orqali jamiyatning tarixiy merosi, ijtimoiy qadriyatlari va tafakkur an'analari avloddan-avlodga uzatiladi. Tilni o'zlashtirish jarayonida bola nafaqat shaxsiy bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki jamiyatda shakllangan ijtimoiy tajriba va bilimlarni ham o'zlashtiradi. Shu boisdan, bolaning qaysi tilda so'zlashi, avvalo, ota-onasining millati bilan emas, balki uning qaysi til muhitida ulg'aygani, ya'ni ijtimoiy-lingvistik muhit bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishi masalasi tilshunoslar, bolalar psixologlari, logopedlar, shuningdek, pedagoglar o'rtasidagi ilmiy bahs va munozaralarning markaziy mavzularidan biriga aylanib bormoqda. Bunday ilmiy qiziqish, bir tomondan, bolalar nutqining murakkab ko'p qirrali hodisa ekanligi, ikkinchi tomondan esa uning til, tafakkur va shaxs rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotning ushbu qismida biz bolalar nutqini psixolingvistik nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz. Bu yondashuv, avvalo, psixolingvistika fanining paydo bo'lish jarayonlari, uning mustaqil fan sifatida shakllanishi, ilmiy-nazariy mohiyati va tadqiqot obyektlarini tahlil qilishni talab etadi. Psixolingvistikaning shakllanish tarixi shuni ko'rsatadiki, Sharq, xususan O'rta Osiyo hududida bu sohaga oid dastlabki qarashlar qadimdan mavjud bo'lgan.

Psixolingvistik tafakkurning ildizlari mashhur Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr al-Farobiy[3], Abu Ali Ibn Sino[1], Alisher Navoiy[2] kabi allomalar merosiga borib taqaladi. Masalan, dunyo ilm

TILSHUNOSLIK

ahli tomonidan "ikkinchi muallim" nomi bilan e'tirof etilgan al-Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insonning boshqa jonzotlardan sifat jihatidan ustunligini alohida ta'kidlab, bu farqni bosqichma-bosqich asoslab beradi.

1. Inson aqlli mavjudot bo'lib, aql va jon insonning tabiiy ibtidosidir.
2. Insonning aql va nutqi bor.
3. Inson kasb-hunarga ega[3].

U til va tafakkur masalasini ijtimoiy-falsafiy, shuningdek, kognitiv nuqtayi nazardan yoritgan bo'lib, bu fikrlar keyinchalik psixolingvistikaning shakllanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Ibn Sino esa nutq va tafakkur jarayonlarini psixologik va fiziologik jihatdan izohlashga urinib, insonning bilish faoliyatida tilning o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil etgan. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida tilning ijtimoiy va estetik jihatlariga e'tibor qaratib, nutqning shaxs rivojlanishidagi beqiyos o'rni haqida qimmatli mulohazalar bildirgan.

Shunday qilib, bolalar nutqini psixolingvistik jihatdan tadqiq etish jarayonida Sharq mutafakkirlarining boy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ilmiy qarashlar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar uchun ham nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Allomalar insonning shakllanishi va kamol topishini ta'minlovchi sifatlar o'zaro uyg'unlashgan holda uning rivojlanishiga zamin yaratishini ta'kidlaganlar. Xususan, Forobiy ta'lim va tarbiya masalasiga alohida to'xtalib, ularning mohiyatini ochib beradi. Unga ko'ra, inson yangi tug'ilganda ma'lum bir **bilish qobiliyatiga** ega bo'ladi. Bu imkoniyat tug'ma bo'lsa-da, uni ro'yobga chiqarish uchun insonning sezgi a'zolari faoliyatga kirishadi. Atrof-muhitni idrok etish, voqelikni tanib borish jarayoni sezgilar orqali amalga oshadi. Shu sababli **nom va tushunchalar** insonning bevosita tug'ma xususiyati emas, balki sezgi va idrok asosida avloddan avlodga o'tadigan **qabul qilingan bilimlardir**[3]. Forobiy fikricha, insoniyat ichida faqat insongagina so'zlash va fikrlash layoqati ato qilingan bo'lib, u **nutq va til orqali axborot almashish** imkoniyatiga ega. Muloqotning asosiy shakli **verbal vositalar** orqali namoyon bo'lsa-da, turli ijtimoiy hodisalar va voqelikka munosabat **noverbal ifoda** shakllarida ham ifodalanadi. Forobiy inson bilimni ikki manbaga tayangan holda izohlaydi: **tug'ma imkoniyatlar va o'qish-tajriba asosida hosil qilingan bilimlar**. Nutq esa mashg'ulot, shug'ullanish va mashaqqatli mehnat jarayonida shakllanadi. U o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida nutqni buzuvchi omillar haqida ham to'xtalib, ular inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Asarda "Sufistanniya san'ati" doirasida olib borilgan bahslarda qo'llaniladigan oltita usul sanab o'tiladi: tanbeh berish, sarosimaga solish, tuhmat va qat'iyat bilan ta'qib qilish, bahslashuvchini duduqlanishga majbur etish, safsata va bema'nilikka murojaat qilish, uni sukutga majbur etish. Bu usullar orqali hatto fikr bildirishga qodir odam ham gapirmaslikka undaladi. Forobiy bunday yondashuvning mohiyatini tahlil qilib, ularni ikki turga ajratadi: dastlabki uch usul – **ongni jarohatlovchi** omillar, keyingilari esa **tilni kishanlovchi**, fikr ifodasini to'suvchi vositalar sifatida baholanadi[3]. Shundan ko'rinadiki, inson ruhiy holati va uning nutqiy faoliyati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ruhiyatdagi o'zgarishlar til orqali miya faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu fikrni Ibn Sino ham davom ettirib, inson miyasi tug'ilish jarayonida ortiqcha rutubatdan xoli bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu rutubat bola onaning qornida yoki tug'ilgandan keyin tabiiy ravishda tozalanishi lozim, aks holda kelajakda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi[1].

Sharq mutafakkirlaridan biri, tabobat ilmining buyuk namoyandasi Abu Ali Ibn Sino o'zining mashhur "**Al-Qonun fi-t-tibb**" ("**Tib qonunlari**") asarida miya faoliyatini batafsil yoritib, uning turli buzilish holatlari haqida qimmatli fikrlar bildiradi. U shuni ta'kidlaydiki, inson organizmidagi ko'plab kasalliklarning ildizi miya faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Olimning tasnifiga ko'ra, duduqlanish, aqliy sustlik, tutqanoq, shuningdek, ruhiy iztirob oqibatida kuzatiladigan turli nutq buzilishlari asosan miyada kechadigan jarayonlar natijasidir. Ibn Sino nafaqat ularning sabablari va klinik ko'rinishlarini sanab o'tadi, balki ularni davolash bo'yicha muayyan usullar va amaliy tavsiyalar ham beradi. Bu jihatdan uning qarashlari bugungi kunda **patopsixolingvistika** deb ataladigan sohaning dastlabki shakllanishiga asos bo'lgan, deb aytish mumkin[1]. Keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, inson nutqi, ruhiy salomatligi va miya faoliyatining o'zaro bog'liqligi haqidagi ilk psixolingvistik qarashlar aynan Sharq olimlari tomonidan ilgari surilgan. Biroq ushbu sohaning keyingi bosqichdagi chuqur rivojlanishi G'arb ilmiy maktablariga xos bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika va Rossiyada psixolingvistika mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida

shakllanishi uchun nazariy va metodologik asoslar yaratildi. Shu davrdan boshlab psixolingvistika alohida fan sifatida shakllanib, XX asr davomida ham psixologlar, ham tilshunoslarning diqqat markazida bo'ldi. Psixolingvistikaning asosiy mohiyati shundan iboratki, u nutqiy faoliyatni o'rganadigan fan bo'lib, **psixologiya va lingvistika fanlarining integratsiyasidan** kelib chiqqan. Lingvistika odatda nutq tuzilishini va uning til qonuniyatlariga mosligini tadqiq etadi. Psixolingvistika esa bundan kengroq yondashib, nutqni hosil qilish jarayonini, uni qabul qilish mexanizmlarini, so'zlovchi va tinglovchining ongida kechadigan jarayonlarni ham o'rganadi. Bundan tashqari, psixolingvistika nutq jarayonini **nutq akti, kommunikativ vaziyat va so'zlovchi shaxsning maqsad-intensiyasi bilan mazmuni orasidagi bog'liqlik** nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Tilshunoslik esa ko'proq tilning ijtimoiy mohiyatiga, so'zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy tajribasi va tilning semantik tomoni orasidagi aloqalarga urg'u beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ibn Sino kabi allomalar qarashlari psixolingvistikaning Sharqda ilk ildiz otganidan dalolat bersa-da, uning ilmiy fan sifatida shakllanishi va metodologik asoslari XIX–XX asrlarda G'arb ilmiy muhitida keng rivojlandi. Bugungi kunda esa psixolingvistika til, tafakkur va psixika o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tahlil qiluvchi muhim ilmiy sohaga aylangan.

Alan Graham psixolingvistikaning IX asr oxiriga kelib birlashtirilgan to'rtta tarixiy ildizi mavjudligi haqida ma'lumot beradi va ularning har biriga alohida to'xtalib o'tadi[5]. Uning ta'rifiga ko'ra, birinchi ildiz qiyosiy tilshunoslik bo'lib, unda tilning psixologik kelib chiqish masalasi ko'tarilgan. Ikkinchi ildiz miyada tilni o'rganish edi. Uchinchi ildiz bola rivojlanishiga kundalik yondashuv edi. Unga Emili Russo tomonidan asos solingan. To'rtinchi ildiz Fransisk Dondersning aqliy xronometriyasidan kelib chiqqan nutq va tilni qayta ishlashga eksperimental yondashuv edi.

Alan Graham psixolingvistikaning tarixiy shakllanish bosqichlariga to'xtalar ekan, u XIX asr oxiriga kelib ushbu fan to'rt asosiy ildiz asosida birlashganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, birinchi tarixiy ildiz **qiyosiy tilshunoslik** bo'lib, unda inson tilining psixologik kelib chiqishi masalasi dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'tarilgan. Ikkinchi ildiz **til va miya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga taalluqlidir**[20]. Bu yo'nalishda til funksiyalari va miya faoliyatining o'zaro munosabati turli nevrologik kuzatuvlar asosida tadqiq qilingan. Uchinchisi esa **bola rivojlanishini kundalik yondashuv asosida o'rganish** bo'lib, bu g'oya Emili Russo tomonidan shakllantirilgan. U bola nutqi va tafakkurining o'sishi oddiy kundalik hayotiy tajribalar orqali qanday amalga oshirishini tahlil qilgan. To'rtinchi ildiz sifatida esa Fransisk Dondersning **aqliy xronometriya nazariyasi** asosida shakllangan nutq va tilni qayta ishlash jarayonlariga **eksperimental yondashuv** alohida e'tirof etiladi. Bu yo'nalish keyinchalik kognitiv psixologiya va psixolingvistika tadqiqotlarida keng qo'llanila boshlagan. Shuningdek, psixolingvistika taraqqiyotida Jeneva genetik psixologiya maktabi asoschisi **Jan Piajening** izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. U bolalar psixologiyasi va tafakkur jarayonlarini chuqur o'rgangan holda **kognitiv rivojlanish nazariyasini** yaratdi. Piaje tilshunoslar hamda psixologlar orasida ayniqsa bolaning tafakkuri va nutqiy faoliyatining **to'rtta rivojlanish bosqichi** haqidagi qarashlari bilan mashhurdir.

Olimning nazariyasiga ko'ra, birinchi bosqich — **sensomotor bosqich** (0–2 yosh). Bu davrda chaqaloq atrof-muhitni idrok qilish jarayonida ko'rish, eshitish kabi sezgi organlari bilan jismoniy-motor harakatlarini muvofiqlashtirish orqali borliq haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi. Ya'ni bola o'z bilimini harakat va amaliy faoliyat orqali egallaydi. Ikkinchi bosqich — **preoperatsion bosqich** bo'lib, 2–7 yosh oraliqini qamrab oladi. Bu davrda bola so'zlardan faol foydalanadi, turli tushunchalarni ifodalashda tasvirlar, chizmalar va ramziy belgilar yordamida o'z fikrlarini voqelantirishni o'rganadi.

Uchinchi bosqich — **konkret operatsion bosqich** (7–11 yosh). Ushbu davrda bolalarning tafakkuri ancha kengayadi, ular kundalik hodisalarni mantiqiy izchillikda tushuntirishga intila boshlaydilar. Shu bilan birga, ularning fikrlashi asta-sekin egotsentriklikdan chiqib, obyektiv yondashuvga yaqinlashadi.

To'rtinchi bosqich — **formal operatsion bosqich** bo'lib, 11 yoshdan balog'at davrigacha davom etadi. Bu davrning asosiy xususiyati shundaki, bola mavhum tushunchalar bilan ishlash, nazariy mulohaza yuritish, faraziy-deduktiv asoslarda fikr shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lib boradi. Shu tariqa Piaje nazariyasi bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishini yosh bosqichlariga qarab ilmiy asosda tasvirlab beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alan Graham va Jan Piaje

TILSHUNOSLIK

ta'riflagan tarixiy ildizlar va kognitiv rivojlanish bosqichlari psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishida muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan [20].

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, bolaning rivojlanish jarayonini ma'lum davrlarga ajratib o'rganish nafaqat metodologik yondashuv sifatida, balki ilmiy jihatdan ham samarali usul hisoblanadi. Chunki har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular takrorlanmas va o'zaro izchil tarzda bir-birini to'ldiradi. Shu asosda bolalar rivojlanishini davrlashtirib o'rganish ilm-fanda yetakchi tamoyillardan biriga aylangan. XVIII asr oxirida Vena shahrida faoliyat yuritgan mashhur olim **Frans Jozef Gall** miya anatomiyasi bo'yicha dastlabki fundamental izlanishlarni amalga oshirdi. Uning ilmiy mashg'ulotlari nafaqat Venada, balki keyinchalik Parijda ham katta qiziqish uyg'otdi va eng iqtidorli tibbiyot talabalarini jalb etdi. Gall o'z tadqiqotlarida til va tafakkur faoliyatining miya bilan bevosita bog'liqligini ta'kidladi. Unga ko'ra, insonning so'z xotirasi va lisoniy tafakkuri miyaning muayyan hududlari bilan chambarchas aloqador bo'lib, ular shu nuqtalarda lokallashgan bo'lishi mumkin. Bu nazariya keyinchalik neyrolingvistika va psixolingvistika fanlari uchun muhim metodologik asos yaratdi[16]. Shuningdek, 1762 yilda **Jan Jak Russo** ta'limni isloh qilish g'oyasini ilgari surib, uni "tabiiy ta'lim" konsepsiyasi orqali izohladi. Uning fikricha, bolani shakllantirishda majburiy maktab ta'limidan ko'ra, tabiiy muhit va kundalik hayotiy tajriba muhimroqdir. Russo ota-onalar va o'qituvchilardan bolalarni diqqat bilan kuzatib borishni, kuzatuv natijalarini muntazam ravishda kundaliklarda qayd etishni talab qilgan. Bu yondashuv bolalar rivojlanishining empirik asosda o'rganilishiga, shuningdek, ularning nutqiy taraqqiyotini kuzatishda psixolingvistik metodlarni shakllanishiga zamin yaratdi[20]. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, keyingi davrlarda ham ko'plab olimlar bolalar nutqini psixolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etib, o'z farzandlarining nutqiy rivojlanishini kuzatish asosida kundaliklar tuzganlar. Bu jarayon bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishini individual kuzatish orqali aniq faktlarga asoslangan holda ilmiy tahlil qilish imkonini berdi.

Psixolingvistikaning shakllanish tarixi turli davr olimlarining kuzatuvlari va ilmiy izlanishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi bor 1787 yilda nemis faylasufi **Ditrix Tidemann** o'zining kuzatuv kundaligini nashr etadi[17]. U unda o'g'li Fridrixning tug'ilganidan keyingi dastlabki 30 oy davomida nutqiy va psixologik rivojlanishini batafsil qayd etgan. Mazkur kundalik bolaning nutqni egallash jarayoniga oid ilk empirik kuzatuvlar sirasiga kiradi. Keyinchalik bu an'ana davom ettirilib, **Charlz Darvin** 1877 yilda o'z o'g'li Uilyamning erta rivojlanishiga oid kuzatuvlarini e'lon qiladi. Darvinning ushbu ishlari bolalar psixologiyasi va nutq taraqqiyotini o'rganishda ilmiy tahliliy yondashuvning kengayishiga xizmat qildi[6]. Shuningdek, ingliz olimi **Uilyam Jons** 1786 yilda qilgan izlanishlari bilan psixolingvistika tarixida alohida o'rin egallaydi. U tilning kelib chiqishi va funksiyalarini inson muloqoti jarayonida empirik asosda tadqiq etishni ushbu fanning markaziy masalasi sifatida belgilab berdi. Jons sanskrit, yunon va lotin tillari o'rtasidagi leksik yaqinlikni ilmiy asosda ta'kidlab, bu o'xshashliklarning oddiy tasodifiy hodisa emas, balki ularning **umumiy kelib chiqishiga** borib taqalishini ilgari surdi. Olimning ushbu qarashlari keyinchalik **hind-yevropa tillari oilasi** haqidagi nazariyaning shakllanishiga zamin yaratdi[19]. XX asr psixolingvistikasining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan **Villem Levelt** esa ushbu fanni "qadimiy, yaxshi o'rganilgan va hurmatga sazovor" soha sifatida e'tirof etadi. Uning fundamental tadqiqotlari 1770 yildan 1950 yilgacha bo'lgan psixolingvistika tarixini qamrab oladi. Olim o'z asarlarida nafaqat nazariy rivojlanish bosqichlarini yoritadi, balki sohada faoliyat yuritgan ko'plab olimlarning hissasini ham qayd etadi[19]. Jumladan, u **Sharlotta Byuler** (1893–1974) faoliyatini alohida ta'kidlab, uni 1918 yilda Germaniyada psixolingvistikada eksperimental metoddan foydalangan birinchi ayol olim sifatida tilga oladi. Byulerning ishlari psixolingvistika fanida metodologik yondashuvlarni boyitgan holda eksperimentning markaziy o'rin egallashiga turtki bo'ldi[19].

Shuningdek, 1879 yilda Germaniyada tashkil etilgan birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi asoschisi sifatida **Vilgelm Vundt** tarixda muhim o'rin tutadi. U "eksperimental psixologiyani otasi" deb nom qozongan bo'lib, psixologiyani obyektiv va ilmiy jihatdan o'rganish mumkinligini isbotladi. Vundtning ilmiy qarashlarida til asosiy tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi. U jumlaning nutqiy faoliyatning asosiy birliklaridan biri sifatida ko'rib, nutqni yaratish nazariyasini ishlab chiqadi. Vundtga ko'ra, nutqiy faoliyat oddiy mexanik jarayon emas, balki

tugallangan fikr asosida boshlangan, izchil va murakkab psixologik bosqichlardan iborat yaxlit jarayondir. [18].

XULOSA

Psixolingvistik tafakkurning shakllanishida dastlabki qarashlarning Sharq ilmiy muhitida yuzaga kelgani alohida ta'kidlashga arziydi. Biroq, mazkur yo'nalishning keyingi davrlardagi izchil rivojlanishi, uning nazariy asoslari va amaliy tatbiqlarining mukammal shakllanishi asosan G'arb ilmiy maktablari doirasida amalga oshirildi. Sharq mutafakkirlarining nutq va tafakkur haqidagi qarashlari psixolingvistika uchun muhim dastlabki zamin bo'lsa-da, G'arb olimlari ushbu sohani mustaqil ilmiy fan darajasiga ko'tardilar. Bolalar nutqini lingvistik nuqtai nazardan o'rganishda markaziy e'tibor nutqiy faoliyatni aniqlash, tahlil qilish va tavsiflash jarayonlariga qaratiladi. Bu jarayon esa o'z navbatida bolaning tilni egallash bosqichlariga xos bo'lgan alohida lingvistik xususiyatlarni aniqlashni talab etadi. Masalan, muayyan rivojlanish davrida bola qanday lingvistik vositalardan foydalanishi, ularni qanday mantiqiy va semantik tizim asosida qo'llashi ham alohida ilmiy tahlil obyekti hisoblanadi. Shu jihatdan, lingvistik yondashuv bola nutqining strukturaviy, semantik va pragmatik o'ziga xosliklarini izohlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bolalar nutqini tadqiq etish faqat tilshunoslik doirasida chegaralanib qolmaydi. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan psixologiya va pedagogika fanlari bilan integratsiyaga bog'liqdir. Chunki bola nutqining shakllanishida til va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqadorlik fundamental asos vazifasini bajaradi. Psixologik yondashuv bola tafakkurining rivojlanish mexanizmlarini ochib bersa, pedagogik yondashuv nutqiy kompetensiyani shakllantirishda samarali metodlarni taklif etadi. Ontolingvistika doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqi masalasi turli nazariy paradigmalarda keng o'rganilgan va sezilarli ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq masalaning barcha jihatlari yakuniy yechim topgan, deb aytish mumkin emas. Xususan, bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi zamonaviy omillar, raqamli muhitning til va nutq rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri, multimodal muloqot jarayonlarida kuzatilayotgan yangi tendensiyalar hali ham chuqurroq ilmiy tadqiqotni talab qiladi. Shu bois, bolalar nutqi ontogenezi o'rganish bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu borada kompleks, izchil va ko'p qirrali yondashuvlarning qo'llanishi, turli fanlararo metodologiyalarning integratsiyasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ilmiy natijalar berishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. 3-ж. – Т: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – Б. 315.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн: https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Muhokamatul%20lug'atayn.pdf
3. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.– Б. 70.
4. Исхакова Ф. С. Психология и педагогика: учебное пособие / Ф. С. Исхакова. Уфимский государственный университет экономики и сервиса (УГУЭС). – Уфа: Уфимский государственный университет экономики и сервиса, 2015. – 136 с.: табл., схем.: URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=445130>; Сафаров Ш. Психоллингвистика курси. 2015.
5. Alan Garnham. Psycholinguistics. Psychology Press, 1985.
6. Arnold Gesell. Charles Darwin and Child Development. The Scientific Monthly Vol. 49, No. 6 (Dec., 1939), pp. 548-553 (6 pages) Published by: American Association for the Advancement of Science
7. Boland Julie E.: Review of Willem J. M. Levelt (2012)
8. Bühler Charlotte. 1918. "Über Gedankenentstehung". Zeitschri für Psychologie und Physiolo-gie der Sinnesorgane. Abteilung 1: Zeitschri für Psychologie 80.129–200.
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. (2021). Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analysis and Inventions. DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m> Volume 2, Issue 5 May,
10. Davlatova, H. (2022). BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 51-51.
11. Davlatova Khulkaroy. (2023). The role of psycholinguistics in the study of a foreign languages. international engineering journal for research & development. VOL. 8 NO. 4: VOLUME 8
12. X.U Давлатова. (2019) The variation of teaching kids to greeting in Uzbekistan and Great Britain. Молодой ученый, (1), 212-213
13. Uktamovna, H. D. (2019). Opportunities for english-speaking voices in the speech of children of the first school age. problems and solutions of advanced scientific research, 1(1), 226-229

TILSHUNOSLIK

14. U. H. Davlatova and D. Rustamova, "The role of psycholinguistics in foreign language education: Language policy in Uzbekistan," *Educational Administration: Theory and Practice*, vol. 30, no. 6, pp. 3059-3064, 2024. <https://doi.org/10.53555/kuey.v30i6.5974>
15. Fazlieva A.J. "The history of psycholinguistics" 1-10-2020 232.
16. Gall Franz Josef. "On the Functions of the Brain and of Each of Its parts: With Observations on the Possibility of Determining the Instincts, Propensities, and Talents, Or the Moral and Intellectual Dispositions of Men and Animals, by the Configuration of the Brain and Head, Volume 1." Marsh, Capen & Lyon. 1835.
17. Tiedemann, Dietrich. 1772. Versuch einer Erklärung des Ursprungs der Sprache. Riga: Johann Friedrich Hartknoch
18. "Wilhelm Maximilian Wundt" in Stanford Encyclopedia of Philosophy. URL: <https://plato.stanford.edu/entries/wilhelm-wundt/>
19. https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/DZHOUNZ_UILYAM.html
20. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Руссо, Жан-Жак](https://ru.wikipedia.org/wiki/Руссо,_Жан-Жак)
21. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Пиаже, Жан](https://ru.wikipedia.org/wiki/Пиаже,_Жан)